

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

*Atabaeva Muborak Muhammadjanovna*

**Mavzu: “Bahor gullari” natyurmort**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**Sherov D.R**

**Urganch-2017**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
--------------------	----------

### **I- BOB. NATYURMORTNI TASVIRLASHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI**

1.1. Tasviriyl san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarga estedik tarbiya berishda o`qituvchining roli.....	8-11
1.2. “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” uslubiyotining maqsadi va uning o‘quv jarayonidagi o‘rni.....	12-15
1.3. Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda pedagogik texnologiyaning mohiyati.....	16-25

### **II- BOB. “BAHOR GULLARIDAN TUZILGAN NATYURMORT”NI TASVIRLASH USLUBIYOTINING AMALIY –IJODIY ASOSLARI**

2.1. Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortning tasvirlash uslubiyotini o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalar orqali yoritilishi. (Darsning bir soatli ishlanmasi).....	26-32
2.2. O’quv natyurmort qo'yilmasini tuzishdagi qonun-qoidalar.....	33-42
2.3. Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortning amaliy-ijodiy tahlili va uslubiy tavsiyalari.....	43-53

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Ilovalar**

## KIRISH

Mustaqil Respublikamiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma’naviyatli, rivojlangan mamlakatlar darajasida, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog‘liq.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilib, Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, Vazirlar Mahkamasining umumiy o‘rta ta’lim, akademik litseylar va kasb hunar kollejlarini tashkil etish haqidagi va boshqa qarorlari ana shu maqsadlarni ro`yobga chiqarishga qaratilgan.

Hozirgi kunda barkamol insonni tarbiyalash, nafaqat inson, balki jamiyatni komillik darajasiga ko‘tarish muammosi avvalgi davrlardagidan o‘tkirroq qo‘yilmoqdaki, bu vazifani bajarishda barcha fanlar silsilasida nafosatshunoslik - estetika va tasviriy san’atning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Ana shunday milliy uyg‘onish davrida O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik bilan bog‘liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida, ayniqsa, yosh avlod ma’naviyati, erkin, ozod shaxs ma’rifatiga, madaniyat va san’atning rivojiga alohida e’tibor berdi, chunki ma’naviy madaniyat va san’atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo‘ldi.

«Agar iqtisodiy o‘sish, taraqqiyot jamiyatimizning tanasi bo‘lsa, manaviyat-ma’rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli va jonidir. Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘

qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak»<sup>1</sup>.

Milliy mustaqillikni ta'minlashning ma'naviy-axloqiy negizlari, shubhasiz, estetik qadriyatlarga, tasviriyl san'at va nafosat tarbiyasiga ham suyanadi. Ma'naviyatimiz va madaniyatimizni mahkam ushlab turuvchi vositalardan biri bu tasviriyl san'atdir. Tasviriyl san'at bu olamni anglash, ham ijod, ham borliqni go'zallik qonuniyatiga ko'ra o'zgartirishdir. Bilim ahamiyatiga ko'ra san'at hayot darsligidir.

Tasviriyl savod tasviriyl san'atning asoslarini o'rganish natijasida olingan bilim va ko'nikmalardir. U tasviriyl, ifodaviy tilning qonun va qoidalarini amaliyotda birgalikda qo'llay olishni ko'zda tutadi.

### **Mavzuning dolzarbli**

Bugungi kunda etuk kasb egalarini tayyorlashda o'rta va oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash milliy modelining eng dolzarb bo'g'inlaridan biri sifatida isloh etilayotganligi tasviriyl san'at ta'limi mazmunining takomillashtirish muammolarining samarali echimlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'quvchilar o'zbek usta rassomlari xususida bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda tasviriyl san'at ta'limining o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi fan to'garaklari imkoniyatlar darajasida foydalanilmasligidir.

Mavzuning dolzarbli yana shundan iboratki, unda tasviriyl san'at asoslari bo'yicha ma'lumot berishni har tomonlama garmonik tarzda rivojlangan kishida, shuningdek, nafosat madaniyatini ham tarbiyalash masalasi nuqtai nazaridan qarab chiqiladi, shuningdek, nafaqat tasviriyl san'at, balki san'atning boshqa turlarining ham insonga ma'naviy ta'siri va shu san'at namoyondalarining hayoti va ijodi misolida ko'rib chiqadi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimovning O'zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiylig`ilishida so`zlangan "Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin" mavzusidagi nutqidan. "Ma'rifat" gazetasi, 1994 yil, 13 iyul.

## **Ishning maqsadi**

Ishning maqsadi – tasviriy san’at malakalarini shakllantirish, borliqdagi narsa va ro‘y berayotgan hodisalarni ko‘ra bilish va idrok etishga hamda ulardan olgan his-tuyg‘u va tushunchalarni hayotga tatbiq etish, rangtasvir sohasiga uning barcha tur va janrlariga oid bo‘lgan nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lib, shu sohada ijod qilayotgan zamondosh rassomlarning ijodi bilan yaqindan tanishtirishdir.

Mazkur maqsadga erishish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Pedagogik texnologiyaning mohiyati.
2. O‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyani joriy etishning zarurligi.
3. O`quvchilarga natyurmort kompozitsiyasini ishlashni o‘rgatishda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish.
4. Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda amalda qo‘llashni o‘rgatish va tadbiq etish.
5. O`quvchilarga natyurmort kompozitsiyasini o‘rgatishda klaster metodidan foydalanish.
6. O`quvchilarda bahor gullaridan tuzilgan natyurmort mavzusidagi dars ishlanmasi yaratish haqida ko‘nikma va malaka hosil qilish.

## **Ishning nazariy va amaliy ahamiyati**

Bu mavzuning nazariy ahamiyati shunda ko‘rinadiki, unda natyurmort ishslash qonuniyatlari va real borliqdagi ob’ekt va predmetlarni fazoda idrok qilish, ularni o‘rganib chiqish va qog‘ozda to‘g‘ri tasvirlash, rangtasvida shakl, hajm va konstruksiya, perspektiva va shu asosda predmetlarni realistik tasvirlash asoslarini o‘rganish, predmetlarni tasvirlashda uning xususiyatlarini e’tiborga olish, proporsiyaning, predmet sirtining yorug‘-soya qismlari va undagi ton munosabatlarini aniqlash kabi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, rangtasvir san’atining fazilatlari ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi, rangtasvir asarlari ayni chog‘da ham badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki

ma'lum bir sharoitda yaratilgan har bir tasviriy san'at asari tarixning bir bo'lagini aks ettiradi.

U yoshlarni badiiy axloqiy umuminsoniy qilib tarbiyalab, ularning milliy dunyoqarashini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ommaviy ravishda qo'llanilib kelayotgan an'anaviy ta'lim – dars usulining o'z yutuq va kamchiliklari mavjud. Bugunga qadar qo'llanilib kelinayotgan ma'lum hikoya, ma'ruza, suhbat kabi metodlar vositasida o'qituvchining fikri o`quvchiga bir tomonlama etkaziladi. Bunda ko'rinib turibdiki o'qituvchi va o`quvchi o'rtasidagi aloqa juda zaif.

Bunday holda qo'yilgan maqsadga erishish asosan o'qituvchi – pedagogning mahoratiga, so'zlashuv madaniyatiga, fikrlarni aniq sodda va tushunarli bayon etishiga bog'liqdir. Albatta, bunday qobiliyatni barcha pedagoglar faoliyatida o'rin olishi amri mahol. Bunday hollarda muvaffaqiyatning asosiy garovi o`quvchilarning barchasini pedagogik jarayonga to'la jalb etishga bog'liq. E'tiborni qaratish, motivatsiyani – muammoli vaziyatlarni loyihalash kerak.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini tashkil etish, ilmiy metodik jihatdan ta'minlash, amalga oshirish bilan bir qatorda, uning natijalarini sifatli baholashni ham taqozo etadi.

O'quv jarayonini uning loyihalashga texnologik jihatdan yondoshganda o'quv jarayonining ma'lum qismlari quyidagi asosiy bosqichlarga ega bo`ladi:

- ta'lim bosqichining umumiyligi maqsadini belgilab olish;
- umumiyligi maqsadni shakllantirishdan uni ixtisoslashtirishga o'tish;
- o`quvchilarning bilim darajasini tashhis qilish.

Bosqichlar ketma-ketligi tavsifi o'qituvchi harakatlarining muntazam takrorlanuvchi ketma-ketligidan iborat bo`lib, u mutanosib tarzdagi maqsad nazorat usullari hamda ta'lim turlari bilan ifodalanib boradi. Ta'lim jarayonini

tashkil qilishning uzviy ketma – ketligi «pedagogik texnologiya»ning nazariy asoslarini namoyon qiladi.

# **I- BOB. NATYURMORTNI TASVIRLASHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI.**

## **1.1. Tasviriy san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarga estedik tarbiya berishda o`qituvchining roli.**

Tasviriy san`at muallimi – ilmiy izlanuvchan ijodkor. Rassom o`qituvchilar qaerda, qanday o`quv maskanida ta`lim jarayonini olib borishidan qat'iy nazar pedagogik faoliyati ijodiy izlanishlar bilan boyitib borsa, shundagina yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllanitirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasviriy va amaliy san`at o`qituvchisining o`z sohasidagi savodxonligi etarli darajada bo`lsagina o`quvchilar bilan yonma-yon o`tirib o`zlari amaliy namuna ko`rsata oladilar. O`shandagina o`quvchilar o`z ko`zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko`rib ruhan his qiladi hamda san`atning nozik sirlarini tushunib etishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy san`at mashg`ulotlari har tomonlama rivojlangan insonning tarbiyalashi uchun boy imkoniyatlar ochib beradi. Tasviriy san`at bilan shug`ullanish bolalarning aqliy va estetik jihatdan rivojlantiradi, atrof dunyonи tushunishiga ko`maklashadi, buyumlarni e'tibor bilan kuzatishga, ularning shaklini tahlil qilishga o`rgatadi. Tasviriy san`atdan savodni chiqarmasdan turib, kishi san`atni tushunishi ham, qadrlashi ham, undan huzur qilishni ham bila olmaydi. Bolalar tarbiyasida zamondoshlarimiz mehnatini go`zalligini ko`rsatishga, mustaqil davlat taraqqiyoti yutuqlarini o`rganish alohida o`rin egallaydi. Bu o`quvchilarning ijodiy aktivligini oshirishga ularning kuchini, ma`naviy quvvatini yangi hayot qurish uchun kurashga safarbar etishga ko`maklashadi.

Estetik tarbiya – bu o`quvchilarda hayotdagi, tabiatdagi, san`atdagi, fan va jamiyatdagi go`zalliklarni to`la-to`kis qabul qilish qobiliyatini tarbiyalashdir. Hayotdagi go`zal narsalar, aql, ruh, irodaga ta`sir qilib, insonning ruhiy olamini boyitadi.

Estetik tarbiya o‘z ichiga badiiy, mafkuraviy, ma’naviy hamda axloqiy tarbiyani oladi.

Estetik tarbiya jarayonida kishining qarashlari, hissiyotlari, didi hamda ideallari shakllanadi: bu shakllanish mafkuraviy tarbiya, ijodiy fikrning rivojlanishi bilan mustahkam bog‘langandir. Estetik tarbiya kishini oljanob, go‘zal hamda insonparvarlik harakatlariga moyil qiladi.

Bugungi kunda madaniy va ma’naviy tarbiya o‘z oldiga insonda mavjud voqelikni ijodiy o‘zlashtirish qobiliyatiga ehtiyojini yaratishdan tashqari, balki unda go‘zallik qonuniga asosan qayta qurish ehtiyojini ham tarbiyalashga qaratilgan. Ta`lim muassasalarining vazifasi estetik tarbiyaning turli metodlari yordamida bolaning aql va vujudiga ta’sir o‘tkazib, unda estetik hissiyotlarini paydo qilish orqali uni go‘zallikka, tabiat ko‘rinishlariga yaqinlashtirish, shuningdek bolaning ijodiy imkoniyatlarini, fikriy faoliyatini rivojlantirib, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘lishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

Fizika – matematika fanlari doktori, professor A.A.Kitaygorodskiy, shunday yozadi: Turli-tuman ko‘rinishlarga ega bo‘lgan go‘zallikni tushunish va sevish insonning ma’naviy boyishi uchungina emas, balki uning yaxshi ishlashi uchun ham kerakdir. Inson qaysi sohada ishlamasin, u adabiyotchi va matematik, geograf yoki ximikmi, u nafosat va go‘zalliklarni ko‘ra olishi va tushuna olishi kerak.

Har bir o‘quvchini hayotda, davlatimizning moddiy va ma’naviy rivojlanishida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlash uchun unga faqat bilim berib tarbiyalashgina kamlik qiladi, uning shaxsiy qobiliyatini rivojlantirish, yangilik yaratishni o‘rgatish, go‘zallik qonuni bo‘yicha yashash va ijod qilishni shakllantirish lozim. Hayot go‘zalligini ko‘rishga intilish insonni oljanob qilib tarbiyalaydi, uning kundalik ishini estetik rohat-farog‘at manb’aiga aylantiradi.

Bolalar ko‘nglida go‘zallik va yuksak g‘oyalar hissini uyg‘otishga da’vat etishda tasviriy san’at o‘qituvchisining o‘rni g‘oyat kattadir. Bolalar ma’naviy didini rivojlantirish uchun o‘qituvchi, avvalo, ularning e’tiborini hayotdagi go‘zallikka qaratishga, go‘zallikni payqash, his etish, qabul etish, huzurlanish,

quvonishga o'rgatish kerak. Did insonning tug'ma xususiyati emas. Uriovjlantiriladi, matabda uni takomillashuviga yordam beruvchi birinchi inson tasviri san'at o'qituvchisidir.

O'qituvchi bolalarga tabiatning rang-barang olamini, rang-barang shakllarini ko'rsatadi. Tabiat go'zalligi, ochiq havoda o'tkazilgan kunlar haqida xotiralar, ular hayotda ko'rib baxri-dillarini ochilgan, tasvirlash qiyin bo'lgan gulzorlarning ranglari - ularning ko'nglini shodixondon etgan, hayajonlantirgan narsalarning xotirasi uzoq vaqtgacha o'quvchi qalbida saqlanib qoladi. O'quvchilar naturadan manzara, daraxt shoxlari, yaproqlar, gullargning rasmini chizar ekanlar, ularning shakllarini o'rganar ekanlar, tabiatga, uning shakl va ranglari naqadar boy va turfalogiga amin bo'ladilar, tabiatdagi go'zallikka, voqeа-hodisalarga mehr-muhabbatlari osha boradi. Maktabdagi rasm darslari tufayli kishi dunyonini haryoqlama ko'radigan bo'ladi, ularning kuzatuvchanligi rivojlantiriladi, mantqiy fikrlashga o'rgatadi, ko'rgan narsani anglab etishga o'rgatadi.

Bolalar tasviri san'at darslarida atroflaridagi yaqin turgan predmetlar ularning shakli, rangi, hajmi va boshqa o'ziga xos jihatlardagi xilma-xillik bilan tanishadilar. Bu tanishuv ulardagi ko'z xotirasini kuchaytiradi, buyumlar haqidagi aniq va to'la tasavvurlari paydo bo'lishiga yordamlashadi. Tasvir jarayoni o'quvchiga ilgari qisqagina nazar solib o'tgan buyumlarni endi chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

O'quvchi rasm chizayotgan vaqtida buyumning formasi, ularning shakliy qurilishi, proporsiyasi, bo'shliqdagi holati, rangi, uning och-to'qligi, materialining qandayligi e'tibor bilan o'rganiladi, shu bilan ularni yanada samaraliroq, ko'p tomonlama, teran va aniq xis etishga ko'nikib boradi.

Tasvir chizishga o'rganish o'zaro bog'liq bo'lgan ikki masalani hal qiladi: o'quvchining ko'rish qobiliyatini o'stiradi, hamda tasvirlayotgan, ko'rayotgan narsa haqidagi tasavvurini oshirib uni chuqurroq anglab etishga o'rgatadi.

O'quvchilarning ko'rish qobiliyatini o'stirish deganda biz ulardagi bir maqsadga qaratib yo'naltirilgan kuzatishni tarbiyalashni: buyum va xodisalarini

o‘zaro taqqoslash, o‘xshashlik va tafovutni aniqlash, ularning shakl va uslubiga qarab turkumlashtirishga o‘rgatishni tushunamiz. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarining vazifasi jiddiy e’tibor bilan qarashga, fikrlashga, buyumlar shaklini aniq tahlil qilishga o‘rgatishdan iboratdir. Rang-barang tassurotlarini mulohaza qilish, kuzatishlardan umumlashmalar chiqarish va to‘g‘ri xulosalarga kelish natijasida o‘quvchilarning malaka va ko‘nikmaları rivojlanadi, ularda yangi bilimlar egallahsga intilish uyg‘onadi.

O‘quvchilarning ongli ko‘rish, e’tiborini takomillashtirib borish natijasida diqqat –e’tiborning boshqa shakllarini, ya’ni mакtab yoshdagi bolalar uchun zarur bo‘lgan turlarni rivojlantirishga yordamlashadi. Chunki bu yoshdagi bolalarda odatda uyushmagan, beqaror e’tibor mavjud bo`ladi.

## **1.2.“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” uslubiyotining maqsadi va uning o‘quv jarayonidagi o‘rni**

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashni milliy dasturi ishlab chiqilishi va uni amalga oshirilishi ta’lim-tarbiya jarayonida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, milliy kadrlar tayyorlash va uni sifat-saviya jihatidan yuksaltirish – bu yuqori malakali o‘qituvchi-pedagoglarni tayyorlash bilan birga yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishni ham yuqori saviyaga ko‘tarilishini asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonida tasviriy san’at ta’limi alohida o‘ringa bo‘lib, u bola shaxsini har tomonlama etuk, go‘zal dunyoqarashli, estetik tuyg‘ular bilan tarbiyalaydi. Chunki, tasviriy san’at, xususan, natyurmort janrida yaratilgan har qanday asar insonni bilishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ilm, tafakkur, tasavvur, malaka va ko‘nikmalarini tarkib topdiradi.

Pedagogika nazariyasi va tarixida ma’lumki har bir dars metodikasi jahon pedagogikasi tajribalariga suyanadi. Dars metodikasining to‘g‘ri tanlash eng avvalo pedagogika nazariyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Har bir o‘qituvchi o‘zi dars metodikasini belgilashda o‘qitishning didaktik prinsiplaridan kelib chiqqan xolda dars materialini oson, qisqa, ilmiy asosda o‘quvchiga etkazadigan eng samarali metodini tanlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko‘tarish masalalri muhokama qilindi. O‘zbekiston oldida turgan turli-tuman ijtimoiy va iqtisodiy vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishi uchun mehnat unumдорligi jadal o‘stirilishi, barcha ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishi, ilm-fan, texnika, texnologiya taraqqiyoti jadallashtirilishi zarur. Ta’lim tizimida ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi texnika va ilg‘or texnologiyalarning o‘quv jarayonida joriy etilishi ta’lim jarayonining xarakteri va mazmunidagi o‘zgarishlarni ko‘p jihatdan belgilab beradi

va ularning ilmiy-ijodiy saviyasiga yuqori talablar qo'yadi. Bular barcha ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlashning mazmuni, formalari va uslublarini yanada takomillashtirishni, avvalambor, kelajagi buyuk davlatga o'z mutaxassisligini puxta o'rgangan, bilimli, etuk kadrlarni tayyorlashni talab etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchi tasviriy san'atning natyurmort janrida rasm chizish ko'nikmasini shakllantirishning o'ziga xos metodikasini ishlab chiqish va uni yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonlarida joriy etilishi ustida ish olib borilgan.

Tasviriy san'atda natyurmort janrida rasm chizishning o'ziga xos bir qator xususiyatlari mavjud. U avvalo o'quvchining asosan aqliy va ma'naviy saviyasini rivojlantirib boradi. Chunki, maktab davrida bola ham jismoniy, ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan g'oyat tez rivojlanadi.

O'smir va o'spirinlik davrlarida bolalar barcha bilimlar zaminini o'zida mujassam qiladi va barcha fanlardan etakchi ma'lumot oladi. Bolalar tasviriy san'at darslarida, xusan, natyurmort janrida asar yaratayotganda moddiy olamni ko'rishni, kuzatishni, ulardan olgan taasurotlarni tekshirishni o'rganadi. Bu malakalar o'quvchilarda o'quv fanlari darslari asosida amalga oshiriladi. Shu boisdan ularda o'qitiladigan o'quv fanlari zimmasiga juda katta mas'uliyatlar yuklanadi. Yuqori sinflarda o'rganiladigan tasviriy san'at o'quv fani ham bugungi o'quvchilarimizni ta'limiy va tarbiyaviy sohalarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Maktab tasviriy san'ati bolalarga tabiat va jamiyat qonunlarini, ularni shakli, tuzilishi, rangi, o'zaro bog'liqligi haqida dastlabki tushunchalarni beradi. Bu ularni juda yoshligidan materialistik dunyoqarashlarini shakllantirib, uni rivojlanishiga zamin yaratadi.

I-VII sinflarning tasviriy san'at darslarini barchasida pedagogikaning barcha turdag'i dars o'tish metodlaridan foydalaniladi. Unda hatto bahs-munozara metodidan ham foydalaniladi.

I-VII sinflarda rasm chiziladigan natura va natyurmortlar rasmini chizish yoki tematik kompozitsiyalar yaratishning ish mazmuni ancha murakkablashib boradi. Bular o‘qituvchidan dars jarayonida qo‘llanilayotgan uslublarini o‘zgartirib goh bir, goh ikkinchi - boshqa uslublardan foydalanishni taqozo etadi. Ammo har bir darsda og‘zaki bayon etish va savol-javob metodidan keng foydalaniladi.

Tasviriy san’at darslarini tashkil etishda, xususan, «Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash”da turli uslublarni qo‘llanishidan qat’iy nazar o‘qitish didaktikasini tarbiyaviylik, ilmiylik, izchillik, ketma-ketlik, ko‘rgazmalilik, rivojlantiruvchi, nazariyot bilan amaliyotni birligi kabi prinsiplarga doimo asoslanadi. Chunki, dars uslublarini barchasi o‘qitish didaktikasi asosida amalga oshiriladi. Didaktika sinf - dars sistemasini ilmiy asosi bo‘lib, didaktika talabiga javob bermaydigan dars o‘z maqsadiga erisha olmaydi va oldiga quygan vazifani bajarmaydi. Shuningdek, tasviriy san’atning har bir dars mashg‘uloti predmetlararo bog‘lanishi prinsipi asosida ishlaydi.

Predmetlararo bog‘lanish darsni ilmiyligini, izchilligini, amaliyot bilan bog‘liqligini ta’minlaydi. Predmetlararo bog‘lanish darsini va uning o‘quv materiallarini boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘laydi. O‘quvchilarni boshqa fanlardan olgan bilim va malakalaridan tasviriy san’at darslarida foydalanishga o‘rgatadi. Ular bu bog‘lanish asosida dars materialini osonroq o‘zlashtirib oladilar.

O‘qituvchining dars uslubini to‘g‘ri tanlashi va undan unumli foydalanishi o‘ziga osonroq sharoit yaratadi, o‘quv materialini oson, qisqa, ilmiy va tushunarli qilib o‘quvchiga etkazadi.

Turli yangi dasturlar bo‘yicha sinflarda tasviriy san’at o‘quv fani mashg‘ulotlari: suhbat, rangtasvir, grafika (qalamtasvir) asosida olib boriladi. Bu sinflarda o‘quvchilar tasviriy san’atning natyurmort janri asosida yaratilgan san’at asarlari tahlilini o‘rganadilar. Shuningdek, ular qalamtasvir, rangtasvir, grafika, janrlar, mavzu, kompozitsiya, hajm, fazo (perepektiva), chiziq, yorug‘ soyalar, rang, rang uyg‘unligi, dog‘, mazmun, shakl, g‘oya kabilar haqida ma’lumot oladilar.

“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” uslubiyotining o‘quv jarayonidagi o‘rni beqiyos. Tasviriy san’at darslarida ushbu mavzuda natyurmortni tasvirlash orqali o‘quvchida natyurmort janri haqidagi bilimlari yanada ortadi. Tabiatda o`sadigan gullarning xilma-xilligi, rang-barangligi, shakli, ko‘rinishi, shuningdek, ulardan qanday va nima uchun foydalanish mumkinligi haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Bundan tashqari gullar turlarini sinflarga ajratish, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib olishlari haqida ma’lumot beriladi.

### **1.3.Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda pedagogik texnologiyaning mohiyati**

-«Texnologiya» tushunchasining ma’nosi nima? Bu – so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi.

Yunoncha ikki so‘zdan «texnos» - san’at, mahorat, hunar va «logos» - fan so‘zlaridan tashkil topib, «Hunar fani» ma’nosini anglatadi, biroq, - bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq ta’riflab bera olmaydi.

Metodika – o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo`yicha tavsiyalar yig`indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi, yig`indisidir.

Moskvalik olimlardan N.F.Talizina: «Pedagogik texnologiya mohiyati – belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat», deb: I.YA.Lerner esa: «Pedagogik texnologiya – o‘quvchilar harakatlarida aks etgan o‘qitish natijalari orqali ishonchli, anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadli ifodalashni taqozo etadi», deydi.

1996 yilda YUNESKO halqaro konferensiyasida ma’qullangan ta’rif: «Pedagogik texnologiya – bu, ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, o‘qitish va bilim, o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo’llashning tizimli metodidir».

1. Professor K.Zaripovning fikricha, yangi pedagogik texnologiya bu murakkab, uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon o‘qituvchining bosqichma-bosqich pedagogik mahorat zinapoyalarini egallab, uning yuksak pedagogik darajasiga ko`tarilishi kabi nihoyatda qiyin, mas’uliyatli mexnatining samarasi sifatida har bir o‘qituvchi uchun erishishi mumkin bo‘lgan mahorat cho‘qqisidir.

2. Professor N.Sayidahmedovning fikricha: Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi (tarbiyachi) ning ta’lim-tarbiya vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Xullas, bu boradagi ta’riflarning xilma-xilligi bir tomondan bu mavzuning u yoki bu jihatni soxta echilganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan pedagogik texnologiyani ta’lim amaliyotiga joriy etishga bo‘lgan urinishlarni ifodalaydi.

**Pedagogik texnologiya o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:**

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

2. Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi.

3. Nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Pedagogik texnologiya ta’lim — tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

5. Pedagogik texnologiya yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya’ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

6. Pedagogik texnologiya-shaxsiylik xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashga nisbatan yagona, qat’iy, me’yoriy (standart) talablar qo‘yilmaydi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l uzoq xizmat qilolmaydi, chunki, **birinchidan**, ma’lum sabablarga ko‘ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida o‘rin olish uchun, aholini ijtimoiy ta’minlashni jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg‘or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi.

**Ikkinchidan**, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib, ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib kolganligi;

**Uchinchidan**, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

**To'rtinchidan**, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tabora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi.

**Beshinchidan**, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqda majmu yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishdir.

Yangi pedagogik texnologiyani amalda qo'llashda har bir fanning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish kerak. Demak, natyurmort kompozitsiyasini ishlashda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o`quvchilarining individuallik yondashuvi bilan uning har tomonlama rivojlanishining umumiyligi talablarini aniqlab olish zarur.

O`quvchi ongingin rivojlanishi va tasavvuri amaliy faoliyatda shakllanadi. Qiyofalar yarata turib, ularni muayyanlashtiradi, boyitadi, ya'ni ish davomida ularni doim o'zgartirib boradi hamda tasviriy faoliyatning yurishida xira, noaniq ijodiy o'ylarini ro'yobga chiqaradi.

Har bir ijodiy faoliyat kabi badiiy ijod ketma-ketli bog'langan vazifalarni hal etishdir. Shunga ko'ra bu vazifalar bir-birining ketma-ketligiga qat'iy rioya etishi shart va xuddi shunday ketma-ketlikda odatda ijodiy tasavvurini birlashishiga olib keladi.

*Kartina g'oyasini tasavvurlash;*

*Dastlabki eskizlarni yaratish;*

*Eskizda belgilanganlarni hal qilish uchun suratlar, xomaki chizgilar, etyudlarni bajarish;*

*Bo‘lajak asarning kompozitsion tuzilishini yakunlash;*

*Tasvirlarda xomaki chizgilar, etyudlarni bajarish va ular yordamida kartinadagi kamchiliklarni to‘g‘rilash;*

*Kartinaning yakuniy rangli qayta ishlovi.*

Etyudlar, suratlar, xomaki chizgilar ko‘rinishidagi materiallar yig‘indisi shunday baza bo‘lib xizmat qiladiki, o‘quvchi ular asosida kompozitsiya muommosining yakuniy echimi ustida ish boshlaydi, o‘quvchi ijodiy ishining bu bosqichida naturali materiallar bilan boyitilgan bir qator eskizlarni bajarilishi bilan xarakterlanadi.

O‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishda interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashdir.

**Tasviri san’at mashg‘ulotlarida quyidagicha interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi.**

«**Taqdimot**»-axborot, nazariya yoki tamoyillarni o‘quvchilarga etkazish maqsadida ekspert tomonidan o‘tkaziladigan tadbir. U turli (ma’ruza, savol berish, munozara yuritish) shakllarda o‘tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni uslub sifatida o‘qituvchiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi.

**Uni o‘tkazish tartibi:**

1. *O‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirish-so‘zlab bermoqchi bo‘layotgan narsalar to‘g‘risida bayon etish.*

2. *Auditoriyadagi bor imkoniyatdan foydalanib, mavzu bilan tanishtirish (ko‘rgazmali).*

3. *Bajarilgan ishga yakun yasash.*

4. *O‘quvchilarning savollariga javob berish.*

«**Bumerang**» - mazkur texnologiya bir mashg‘ul davomida o‘quv materialini chuqr va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rolida chiqishi mumkin.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati; muomalalik; xushfe’lllik; ko‘nikuvchanlik; o‘zga fikriga xurmat; faollik; rahbarlik sifatlarini shakllantirish; ishga ijodiy yondashish; o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish; o‘zini holis baholash.

### **Asosiy tushunchalar quyidagilar:**

- ***ochiq savollar*** - bu savollar muomala, so‘zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.
- ***yopiq savollar*** - bu savollar oldindan «ha» yoki «yo‘q» tipidagi to‘g‘ri, ochiq, javoblarni berishni ko‘zda tutadi.
- ***Ko‘ndalang so‘roq*** - bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo‘lib, bu o‘ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.
- ko‘ndalang so‘roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas, bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

Yuqorida qayd etilgan barcha metodlarning o‘ziga xos xususiyati, maqsad va vazifalarining umumiyligi, o‘quvchilarning tahsil olishdagi va muloqotdagi shaxsiy ma’suliyatini taqozo etishi, shuningdek, muvaffaqiyat qozonishga bir xil imkoniyatlarning mavjudligidir. Hamkorlikda o‘qitish negizida musobaqa emas, balki hamkorlikda aqliy mehnat qilib, tahsil olish jarayoni yotadi.

Rangtasvirdan muvaffaqiyatli ta’lim berishning muhim shartlaridan biri bu o`quvchilarning kuzatuvchanligini oshirishdir. Bizga ma’lumki, naturani realistik tasvirlashning asosida yaratilayotgan predmetning haqiqatda u qanday bo‘lsa shunday bo‘lgan ko‘ruv obrazi yotadi.

Kuzatuvchanlik naturani har tomonlama bilish, undagi eng asosiylarini, xarakterini ilg‘ash, naturaning konstruktiv tuzilishidagi xususiyatlarini ya’ni uning fazoviy holati, nisbati, yorug‘-soyasi, rangini aniq ko‘rishga imkon beradi.

Chunki ko‘pincha rassom bo‘lmagan odamlar buyumlarni juda noaniq ko‘radilar, ular buyumlardagi ko‘p detallarini, hattoki ko‘zga aniq tashlanadigan belgilariga ham e’tibor bermaydilar.

Rasm chizuvchi uchun oddiy holatda etarli bo‘lgan belgilari rasm chizayotgan paytda etarli bo‘lmasisligi mumkin. Realistik tasvirlash jarayoni “predmetni ko‘rish” hissini muntazam chuqurlashtirishni talab etadi.

Ko‘rish malakalarini rivojlantirishga P.P.Chistyakovning pedagogik sistemasida asosiy diqqat e’tibor qaratiladi. “Eng avvalo naturani ko‘ra olishni o‘rganish zarur. Chunki bu eng asosiysi va juda murakkabidir”, -degan edi pedagog.

*Shuning uchun ham o`quvchilarni tasviriy san`at mashg`ulotlarining dastlabki darslaridan boshlab naturani to‘g‘ri ko‘rish va to‘g‘ri kuzatishga o‘rgatish zarur.*

Ko‘pincha o`quvchilar predmet haqida uzuq-yuluq tasavvurga ega bo‘lishsa ular chizayotgan rasm past sifatga ega bo‘ladi. Ba’zida o`quvchilar predmetni diqqat bilan kuzatayotgandek tuyuladi, aslida ular predmetga faqat qarayotgan bo‘lib chiqadilar.

O`quvchilar predmetni to‘g‘ri ko‘ra olishi uchun predmet tuzilishining xususiyatlarini aniqlashtirishga yordam berish kerak.

O`quvchilardagi ko‘rish malakalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun naturadan rasm chizish jarayonida tasvirlanayotgan ob’ektlarni kuzatishni yaxshi tashkil qilish ham muhim rol o‘ynaydi.

Kuzatishning samarali bo‘lishi uchun aniq tashkiliy sharoit, eng avvalo kuzatishni maxsus tashkil qilish lozim.

Bu vazifani hal qilishda klaster metodidan foydalanish ancha yaxshi samara beradi.

**Klaster metodi** – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u o`quvchilarni biron mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o`quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.


Bu metod biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o`quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish, kengaytirish hamda ularning kuzatuvchanligini oshirish uchun xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o`quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida natyurmort janri bo‘yicha klaster tuzish ko‘rsatilgan. Bu erda tayanch so‘z sifatida “Natyurmort” jumlesi olingan.

O`quvchilar mavzu bo`yicha o‘z klasterlarini tuzishadi va o‘qituvchining tuzgan klasteriga solishtirib ko‘radi. Bu orqali ular predmetning nisbati, konstruksiyasi va shakl xarakterini yaxshi o‘rganib olishadi

Agar o`quvchilar predmetlarning barcha xususiyatlarini aniq ajrata olishsa, uni to‘g‘ri tasvirlay oladi.

Demak, o`quvchi oldiga kuzatishning aniq vazifasi qo‘yilmas ekan, rasm chizish jarayoni o‘zining passivligi, noaniqligi, natura ob’ektlarining ko‘ruv obrazlarini shakllantirishda mustahkam emasligi bilan ajralib turadi. Agar o`quvchilar oldiga kuzatuvning aniq vazifasi qo‘ysa boshqacha natijalar kelib chiqadi.



Aytaylik, fazoda joylashgan predmetlarni naturadan rasmini chizish darsidan oldin o‘qituvchi kuzatuv perspektivasini tushuntirib, o‘quvchilarga predmetlar uzoqlashgan sayin qanday o‘zgarishini diqqat bilan kuzatib klaster tuzishni so‘rasa, o‘quvchi bu vazifani osongina uddalashadi.

Naturani kuzatish umumiyl vazifalarni qo‘yish bilan birga, ishning borishi jarayonida o‘quvchilarning o`zлari hal qila oladigan xususiy vazifalarini ham qo‘yishni nazarda tutadi.

Naturani kuzatish bo'yicha berilgan vazifalar kerakli samara ham bermasligi mumkin. Bunday holatda vazifalarni juda xususiy lashtirib yoki qisqartirib berish mumkin.

Bunday vazifalarga tana proporsiyasining perspektiva o'zgarishlariga bog'liq holda kompozitsion joylashtirish kabi vazifalar kiradi. Bunda o'quvchilarda kuzatuvchanlik boyiydi, ularda ishga bo'lgan qiziqish ortadi, ular detallarni yaxshi eslab qolib tasvirni, ob'ektlarini shakllantiradi.

Kuzatuvni to'g'ri tashkil qilish uchun sistemalilik va rejalilik juda muhim. Masalan, tasvirlanayotgan predmetlardan har biri naturani savodli tasvirlash nuqtai-nazaridan o'rganib chiqilishi zarur.

Kuzatish jarayonining rejaliligi naturani tahlil qilishning tartibini ham aniqlaydi. Natyurmortni tahlil qilishda o'quvchilarning e'tibori birinchidan natyurmort predmetidagi umumiylilikka yo'naltiriladi.

Bu shakli, konstruktiv tuzilishi, rangiga ko'ra umumiy ko'rib chiqiladi. Tasvirni keyingi tahlil qilish esa natyurmortning har bir detalini o'rganishdan iborat bo'lib, keyin yana umumiylilikka qarab ketadi.

O'quvchilarni predmetlarni maqsadga muvofiq ravishda kuzatish, predmetlarni o'zaro bir-biriga taqqoslash, ularning o'hshashligi va turlarini aniqlashga o'rgatish juda muhim.

O'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun muammoli savollar va ko'rsatmalar berish zarur.

Shunday qilib, to'quvchilar naturani diqqat bilan kuzatish va shu asosda klaster tuzish orqali, undagi soya va yorug'likni, tushuvchi soyaning o'rmini xatosiz aniqlashadi va ko'rganlarini aniq tasvirlay olishadi.

Yakuniy bosqichida esa o'qituvchi kuzatish natijalarini yana bir marta sharhlab o'tadi.

Shunday qilib, o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshirish orqali tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarni atrof-muhitmi, uning predmet dunyosini to'g'ri

qabul qilishga o‘rgatadi, predmetlar to‘g‘risida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishadi, darsda o‘zining har bir shtrixini o‘ylab qo‘yib, aql bilan ishlashga o‘rgatadi.

Shuningdek o‘quvchilarni fikri faollashadi, ularning fazoviy va obrazli fikrlashi rivojlanadi. Bularning barchasi o‘quvchilarning fikriy va aqliy faoliyatini rivojlantirishda katta hissasini qo‘shadi.



## **II-BOB. «BAHOR GULLARIDAN TUZILGAN NATYURMORTNI TASVIRLASH USLUBIYOTI” NING AMALIY –IJODIY ASOSLARI.**

### **2.1. Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortning tasvirlash uslubiyotini o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalar orqali yoritilishi.** (Darsning bir soatli ishlanmasi)

Ma’lumki, har bir o‘qituvchi darsni yuqori va talablar darajasida tashkil etishi uchun avvalo unga avvaldan puxta tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lishi lozim. Bu tayyorgarlik dars tuzilishi va uning ishlanmasini (ssenariyasini) ishlab chiqishdan iborat.

Bu ikki qismdan iborat bo‘lgan tayyorgarlik o‘qituvchi faoliyatida dars rejasি deb yuritiladi. Ya’ni:

1) Dars tuzilishi.

2) Dars ishlanmasi.

**Darsning tuzilishi** quyidagi qismlardan tashkil topadi:

—Tashkiliy qism. (3 daqiqa)

—Avvalgi darsda o‘tilgan materiallarni qaytarish va mustahkamlash. (5daqiqa)

—Yangi mavzuning bayoni va o‘quvchilarning darsdagi vazifalari.

(10 daqiqa)

—O‘quvchilarning darsdagi mustaqil ishlari. (20 daqiqa)

—Darsda o‘tilganlarni mustahkamlash. (5daqiqa)

—Uyga vazifa berish. (2daqiqa)

Dars rejasining bu tarkibiy qismlari mashg‘ulot turiga qarab (qo‘yilmaga qarab rasm ishlash, kompozitsiya, san’atshunoslik asoslari) ularning o‘rnilarini almashishi mumkin. Masalan, uy vazifasini tekshirishni o‘qituvchi darsning boshlang‘ich qismida emas, balki dars jarayonida yoki darsdan keyin yoki uydai bajarishi mumkin. Ayrim mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mustaqil ishlari bo‘lmasi ham mumkin. U o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligida nazariy yoki amaliy ishlardan iborat bo‘ladi.

**Dars ishlanmasi** quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- 1.Darsning mavzusi.
  - 2.Darsning vazifalari (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi)
  - 3.Darsning jihozlanishi. Bu qismda dars uchun zarur bo‘lgan barcha o‘quv qurollari va jihozlar, natyurmort uchun tuzilgan qo‘yilma hamda ko‘rgazmali qurollar aks ettiriladi.
  - 4.Darsning mazmuni. Bu qismda o‘qituvchining sinfga kirishidan boshlab undan chiqib ketguncha bo‘lgan vaqtida dars jarayonida bolalarga qanday bilimlar berishi, qanday savollar berishi v.b. to`liq bayon etiladi.
  - 5.O‘tilganlarni mustahkamlash. Bu qismda bolalar tomonidan berilgan bilim va malakalar qanchalik darajada o‘zlashtirishini aniqlash yo`llari va metodlari bayon etiladi.
  - 6.Uyga topshiriq beriladi.
- Quyida “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort”ni tasvirlash metodikasi yordamida taxminiy dars ishlanmasini ko‘rsatib o‘tamiz.<sup>(1-ilova)</sup>
- Endi 5-sinflarda tasviriy san’at darsida “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort”ni tasvirlash uchun ishlangan texnologik xaritani ko‘rib chiqamiz.

**“Tasviriy san’at” fanining “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash metodikasi” mavzusi bo‘yicha darsning**

**TEXNOLOGIK XARITASI**

O‘quv fani, sana	O‘quv rejasidagi o‘quv mashg‘ulot mavzusi	O‘qituvchi ismi sharfi	Sinf, o‘quvchilar soni
Tasviriy san’at	“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash	Atabaeva Muborak Muhammadjanovna	5-sinf, 20 nafar

<b>O‘quv mashg‘ulot mavzusi</b>	“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash”.
<b>Mavzu rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Natyurmort janri haqida tushuncha.</li> <li>Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlar bilan tanishtirish.</li> <li>Bahor gullari haqida umumiylar ma’lumot berish.</li> <li>“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash”da amaliy bilimlar berish.</li> <li>“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash”ning maqsadlar taksonomiyasi.</li> </ol>
<b>Asosiy tushuncha va terminlar</b>	Tasviriy san’at, natyurmort, pastonovka, zamонавија pedagogik texnologiyalar, qalamtasvir, rangtasvir, ta’lim, tarbiya.
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<p>Mavzuning maqsadi ta’lim oluvchilarga zamонавија pedagogik texnologiyalar asosida natyurmort janrining ilmiy-nazariy asosini, “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” orqali o‘quvchilarda amaliy - ijodiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish mohiyatini ochish, pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasini etkazish hamda to‘liq o‘zlashtirish metodikasiga asoslangan ilm orqali ta’lim olish texnologiyasini shakllantirishdan iboratdir.</p> <p><b>Asosiy vazifalari</b> quyidagilarni yoritishdan iboratdir:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>–natyurmort janri haqida o‘quvchilarda tushuncha hosil qishini;</li> <li>–inson hayotida gullarning mohiyatini;</li> <li>–gullarning xususiyatlarini;</li> <li>–gullarlarining turlari va ranglarini;</li> <li>–pedagogik maqsadlarni belgilash</li> </ul>

	<p>texnologiyasini;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ta’lim maqsadlarini shakllantirish yo‘llarini;</li> <li>– pedagogik maqsadlar taksonomiyasini.</li> </ul>
<b>O‘quv jarayonining mazmuni</b>	Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asosi, o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish mohiyati, borliqqa majmu sifatida yondashuv, majmu yondashuv tamoyillari, pedagogik maqsadlarni belgilash texnologiyasi, va ta’lim maqsadlarini shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatib beriladi. To‘liq o‘zlashtirish metodikasiga asoslangan nutqiy, ko‘rgazmali, amaliy va o‘qitish metodlari orqali ta’lim olish texnologiyasini shakllantirishdan iboratdir.
<b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Metodi:</b> “Klasster”, “Aqliy hujum”, amaliy-ijodiy metodlari.</p> <p><b>Shakli:</b> nazariy - amaliy, savol-javob.</p> <p><b>Vositasi:</b> nazariy bilimlarni berishda kompyuter texnikasi, slaydlar, multimedia vositalaridan foydalaniladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, konsept matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stend va krossvordlardan foydalaniladi. Amaliy-ijodiy bilimlar berishda natyurmort uchun tuzilgan bahor gullaridan tashkil topgan pastonovkasi va turli eskiz chizmalardan foydalaniladi.</p> <p><b>Usuli:</b> chizma, diagrammalar, og‘zaki va amaliy topshiriqlar</p> <p><b>Nazorat:</b> test va og‘zaki savol-javob, suhbat</p> <p><b>Baholash:</b> reyting tizimida</p>
<b>Tavsiya etiladigan adabiyotlar</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Barkamol avlod — Uzbekiston taraqqiyotining poydevori.—Toshkent: Sharq., 1997.</li> <li>2.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’lim konsepsiysi. — Toshkent, 1995.</li> <li>3.Tasviriy san’at. //Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. — Toshkent: Sharq, 1999.</li> <li>4.Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1984.</li> <li>5.Bakushinskiy A.V. Xudojestvennoe tvorchestvo i vospitanie. Issledovaniya i stati. —Moskva: Sov. xudojnik, 1981.</li> <li>b.Boymetov B, Tolipov N. Maktabda tasviriy san’at to`garagi. —Toshkent, 1995.</li> <li>7.Bulatov S. Amaliy san’at qisqacha lug`ati. — Toshkent: XBM, 1992.</li> <li>8.Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati.</li> </ol>

	<p>—Toshkent: Mexnat, 1994.</p> <p>9. E.Valiulina N. Ruzi Choriev. —Toshkent: G`ofur G`ulom, 1983.</p> <p>10. YU.Zoxidov P.SH. Me'mor olami.— Toshkent: XBM, 1996</p> <p>11.Zamechatelnye polotna. —Leningrad: Xudojnik RSFSR, 1962.</p> <p>12.Karimov X. U.Tansikboev. —Toshkent: YOsh gvardiya, 1978.</p> <p>13.Kilpe T.L. Osnovi arxitekturi. — Moskva: Vissaya shkola, 1984.</p> <p>14.Komenskiy A. Velikaya didaktika. Izbr.ped.soch. —Moskva: Uchpedgiz, 1995.</p> <p>15.Kondaxchan E. Metodika prepodovaniya risunka v sredney shkole. —Moskva: Iskusstvo, 1951.</p> <p>16.Krukovskaya S.M. Iskandar Ikromov. — Toshkent: Rofur Gulom, 1967.</p> <p>17.Kuzin V.S. Psixologiya. —Moskva: Vissaya shkola, 1982.</p> <p>18.Kuzin V.S. Osnovi obucheniya izobrazitelnomu iskusstvu v shkole. — Moskva: Prosveshenie, 1977.</p> <p>19.Leonardo da Vinci. Kniga o jivopisi. Moskva: Izogiz, 1934.</p> <p>20.Nabiev M. Rangshunoslik. — Toshkent: O`qituvchi, 1975.</p> <p>21.Nikiforov B.M. Pavel Petrovich Benkov. — Moskva: Sov. xudojnik, 1967.</p> <p>22.Nikonorova N.M. Naglyadnie posobiya i oborudovaniya dlya zanyatiy izobrazitelnim iskusstvom. — Moskva: Prosveshenie.1991.</p>	
<b>Kutiladigan natijalar:</b>	<b>O`qituvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
<b>Kelgusi rejalar (tahlil o`zgarishlar)</b>	Belgilangan vaqtida juda ko`p axborotlarni berishga, ish jarayonida charchamasdan darsga ijodiy yondoshishga erishadi.	Mavzuni yuqori darajada o`zlashtirishga, tegishli tahliliy usullarni o`rganishga muvaffaq bo`ladi va mustaqil ishlashga tegishli topshiriqlar oladi

“Tasviriy san’at” fanining “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash metodikasi” mavzusi bo‘yicha darsning

## Pedagogik faoliyat loyihasi

MASHG'ULOT BOSQICHLARI	O'QITUVCHI FAOLIYATI	TA'LIM OLUVCHI FAOLIYATI
<b>1- bosqich</b>	Ta'lism oluvchilarni "Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort"ni tasvirlash mavzusi bilan tanishtirib, uning maqsadi, kutiladigan natija va baholash mezonlari va mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtirish.	Mashg'ulot mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni anglaydilar
<b>2-bosqich</b> <i>Ta'lism oluvchilar bilimlarini aniqlash</i>	Darslarni kuzatish va tahlil qilish bo'yicha ta'lism oluvchilarning fikrlarni aniqlaydi (Klasster va aqliy hujum).	Mavzu bo'yicha berilgan savollarga o'qituvchi bilan hamkorlikda javob beradilar
	Yangi mavzuni qisqacha ma'ruza qiladi	Ma'ruza tinglaydilar va kerakli ma'lumotlarni yozadilar.
	Guruhlarni 2 ga ajratib oladi, har bir guruh ishtirokchisini raqamlab chiqadi, baholash mezonlarini e'lon qiladi. Kichik guruhlarga topshiriq beradi: 1-guruh – natyurmort janrida ijod qilgan o'zbek rassomlari ro'yhatini krossvordda echishga, 2-guruh didaktik topshiriq ya'ni savollarga javob berish bo'yicha tayyorgarlik ko'rishlarini aytadi, guruhlar tayyorgarligi uchun qog'oz, marker, ruchka skotch chizg'ich qalamlar tayyor qiladi.	Bajariladigan o'quv topshiriqlari yuzasidan ko'rsatmalarni anglaydi. Har bir guruh o'z topshiriqlarini belgilaydi, baholash mezonlarini yozib oladi
	Kichik guruhlar ishini nazorat qiladi, zarur bo'lsa yordam beradi	Har bir guruh ishtirokchilari berilgan topshiriq turi bo'yicha «mutaxassis» darajasiga etish uchun tayyorgarlik

		ko‘radilar (qog‘oz, marker, qalam chizg‘ich va boshqalardan foydalanadilar)
<b>3-bosqich</b> <i>Ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish</i>	Bajariladigan topshiriqlar bilan ta’lim oluvchilarni tanishtirish (har bir guruh ixtiyoriy topshiriq bo‘yicha mavzu, mavzu maqsadi, mavzudan kutiladigan natijalar, o‘quvchilarni baholash mezonlari, darsning mantiqiy struktura sxemasi va darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish). Ta’lim oluvchilar ishini kuzatadi, tushunmovchilik bo‘lsa ko‘maklashadi.	Topshiriq yuzasidan ko‘rsatmalarni anglaydi. Har bir kichik guruh ixtiyoriy topshiriq tanlaydi, ushbu mavzu maqsadi, mavudan kutiladigan natjalari yaxshi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishga tayyorgarlik ko‘radilar.
<b>4-bosqich</b> <i>Bajarilgan ishlarni baholash</i>	Kichik guruhrular ishtirokini kuzatadi, baholaydi, bajarilgan ishlarning yutuq va kamchilik tomonlarini tahlil qiladi	Har bir kichik guruh o‘z bilimlari bilan ishtirok etadi. Qolgan guruhrular belgilangan mezonlar asosida to‘ldirilmay qolagan joylarini to‘ldiradilar hamda baholaydilar, ikkinchi guruh ishtirokchilariga savol beradilar.
<b>5-bosqich</b> <i>Erishilgan natjalarni tahlil qilish va yakun yasash</i>	Bajarilgan ishlarning yutuq va kamchilik tomonlarini tahlil qiladi. 1 va 2-bosqichlarda jamg‘arilgan ballarni hisoblaydi, g‘olib guruhnini aniqlaydi, rag‘batlantiradi, nazariy – amaliy hamda ijodiy mashhg‘ulotga yakun yasaydi	Bajarilgan ishlarni jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni anglaydilar, mashhg‘ulot bo‘yicha berilgan savollarga yoki topshiriqlarga javob beradilar

## **2.2. O'quv natyurmort qo'yilmasini tuzishdagi qonun-qoidalar.**

Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdagi voqeа-hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash — bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularning fazoviy joylashuvi, materialligi, hajm va nisbatlarni ifodalash, qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan obyektlar va narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.

Realistik tasvirlash savodini dastlabki ta'lim bosqichlarida o'quv natyurmortlarini bajarish orq'ali o'zlashtirish mumkin. Darxaqiqat, savodli tasvirlash asoslarini o'rganishda natyurmort qimmatli tasviriy obyekt bo'lib hisoblanadi. Masalan, N.Tenning «Natyurmort» asari misol bo'la oladi. Natyurmortni rangtasvirning kamerli musiqasi deb atashadi. Unda mahoratli bo'yoq surtmasi, kolorit monandligi va shakl plastikasini kuzatish mumkin. Ular orqali rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini tez va qulay o'zlashtirish mumkin. Ya'ni, perspektiv va konstruktiv qurilish, shaklning soya-yorug'ligi va rangda tasvirlanishi, tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy uzoqlashishdagi holati va materialligi, tus va rang munosabatlari, manzara va interer, inson boshi va qomatini tasvirlashdagi birlik va uyg'unlik hisoblanadi.

Natyurmortni xona ichida, ochiq havoda, soyada va quyoshda, tabiiy va sun'iy yorug'likda tasvirlash lozim. Bu esa o'z navbatida o'quv va ijodiy vazifalarni samarali amalga oshirishga puxta zamin yaratadi.

Natyurmortni amaliy tasvirlashning dastlabki bosqichida biroz soddaroq, so'ngra esa narsa va buyumlarning bir guruhini tasvirlash kerak. Narsalarning bir guruh yig'ilganini tasvirlash uchun natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri tashkil etish muhimdir. U ikki jihat asosida tuziladi: natura qo'yilmasini tashkiliy qismi (narsalarni tanlay bilish va ularni kompozitsion chiroyli joylashtirish) naturaga nisbatan ko'rish nuqtasini aniqlash va qog'oz yuzasida qo'yilmani tasvirlash.

O'g'uv natyurmort qo'yilmasini tuzishda quyidagi qonun-qoidalarga rioya qilish kerak. Har bir o'quv natyurmortning mazmuni rangtasvir dasturida ko'rsatilganidek aniq maqsad va vazifaga ega bo'lishi kerak. O`quvchilar natura qo'yilmasini tasvirlash jarayonida aynan qanday nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini tasavvur eta olishimiz kerak. O'quv vazifalardan tashqari, natyurmort estetik talablarga ham javob berishi kerak: buyum va narsalar aynan mavzuga oid bo'lishi, mazmun jihatdan ma'noli va ta'sirchan bo'lishi va ma'lum g'oyani ilgari surishi kerak.

O'quv natyurmorti ijodiy natyurmortdan vazifasi bilan farqlanadi: o'quv vazifa muvaffaqiyatli yechim topishi uchun narsalar saralanadi, guruhlashtiriladi va shunday yoritiladiki, qo'yilma natijali yakunlanadi. O'quv natyurmortida biroz bo'lsada shartli olinishiga imkon yaratiladi.

Natyurmort kompozitsiyasi ustida odatda narsalardan natura qo'yilmasini tuzmasdan ilgari fikrlar yurgiziladi. O'quv yoki ijodiy vazifalar asosida rassom ongida bo'lajak natura qo'yilmasining xomaki obrazi haqida tasavvur hosil bo'ladi. Masalan, N.Mashkov, "Nonlar" natyurmortini tasvirlash uchun novvoyga non mahsulotlarini tayyorlab berishga buyurtma bergan.

Natyurmortni tuzish mobaynida shakli mayda naqshlar bilan bezatilgan, konstruksiyasi murakkab narsalardan yiroqda bo'lgan ma'qul. Murakkab buyumlarga burmali gazlamani kiritish mumkin. Natyurmort qo'yilmasi haddan tashqari murakkab shaklli va rang jihatdan rang-barang bo'lishi qo'yilmadagi rang munosabatlar mohiyatini tushunishga qiyinchilik tug'diradi.

Natyurmort qo'yilmasini ufq chizig'iga nisbatan pastda joylashgani ma'qul, chunki buyum va narsalarning ostki qismi (ularning asosi) stol ustida aniq ko'rinish turishi kerak. Agar narsalarning asosi bir chiziq bo'yicha qo'yilsa, stol yuzining gorizontal tekisligi ko'rinxay qoladi, bu esa natyurmortni fazoviy yechimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Natyurmort tuzish vaqtida narsalarni balandligi, ularning surat tekisligida joylashuvi, rang bilan shaklini ham hisobga olish kerak. Narsalar guruhi bir

tomonga yig'ilib qolishi noto'g'ri. Yirik buyumlar qisman bo'lsada boshqa buyum bilan biroz to'silgan bo'lishi mumkin. Qo'yilmadagi narsalar shunday joylashishi kerakki, ularni bir qarashda har birini yaqqol ko'rish mumkin bo'lsin.

Natura qo'yilmasidagi narsalarning ranglari ma'lum darajada bir-biriga yaqin va monand bo'lishi kerak.

O'quv qo'yilmalardagi fon (zamin) muhim ahamiyatga ega. U turli rang va och to'qligi bo'yicha, barobar kontrast kuchi bilan narsalarni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalarning yarim-soya va soyali tomonlari och fonda sezilarli ko'rilib turadi. Qoramtil fonda narsalar o'zining yorug'lik sifatlarini ko'proq namoyish etadi. Fonning tusi och va to'q narsalar orasida o'rtacha bo'lishi, rang jihatdan silliq va ko'zga yaqqol ko'rinasligi naturaning muvaffaq'iyatli tasvirlanishiga yordam beradi. Masalan, to'q-qizil narsalarda fon neytral qizil tanlanadi, agarda narsalar to'yingan och yashil bo'lsa, fon kam to'yingan to'q yashil bo'lgani ma'qul. Iloji boricha, natyurmortning foni bilan tagligi (stolning gorizontal tekisligi) tabiiy bo'lishi kerak. Xonaning devori, interer kengligi, yog'och uyning tashqi devorlari yoki uzoqdagi manzara kengligi ham fon o'rnida qo'llanilishi mumkin. Nima bo'lganda ham u natura qo'yilmasida hayotiy haqiqatni aks ettira olishi kerak.

O'quv natyurmortining kompozitsiyasi turlicha yechimga egadir. Biroq badiiy pedagogika va realistik san'at tabiat bilan bayon etilgan asosiy talablar o'zgarmay qolmoq-da: aniqlik, badiiy ifodalilik, o'quv metodik vazifalarning mavjudligi.

Ijodiy natyurmort tuzish uchun hayotiy voqealarga tayanish kerak. Bunday holda chiroqli va qiziqarli kompozitsiya tuzishda narsalar guruhini kundalik turmushda qo'llaniladigan narsa va buyumlardan olish maqsadga muvofiq. Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo'yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo'yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'htalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (natyurmort) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarim soyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida to'plamdag'i barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga bo'yundiriladi va idrok qilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varog'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varog'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varog'i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat'iy rioya g'ilish samarali natija garovidir.

Natyurmort kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta-kichikligini aniq'lashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdag'i qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida "tiqilinch" yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinxaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalgan etuvchi buyum — kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo'lib hizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan), keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni ishslash, so'ogra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ogra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini g'og'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'yimaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta muhim.

Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni to'liq' bajarishmaydi. Ularning diqqat e'tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko'rinishi chizilsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko'rinishini tasvirlayotib, ularning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal

(yotig') chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizontal yoki burchak ostida ushlab qirralarning perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Quyidagi tasvirda konusning asos qismini kubning yuqori tomonining eniga bo'lgan nisbatini qalam bilan asosini chekka o'ng burchak yoniga qo'yib vertikal bo'yicha tekshirish mumkin. Naturada bu vertikal kubning qoraytirilgan tomonini o'rtasidan kesib o'tadi, qalamtasvida esa bunday bo'lmasligi mumkin. Xatosini aniqlab uni darxol tuzatamiz. Agarda konusning chap tomonini davom ettirsak, u silindrning aylana asosiga zo'rg'a tegadi. Bu yerda ham qalamtasvir aytarli darajada aniq emas. Vazani yuqori qismi orqali gorizontal chiziq o'tkazib uning balandligini konus bo'yiga nisbatan aniqlash mumkin. Yana silindrning ikki tomonini davom ettirsak, qayerga borib taqalishini tekshirib ko'rish mumkin. Naturada kubning oldingi qirrasi konusning markazi bilan ro'para kelmaydi, qalamtasvida u aynan markazda bo'lib ko'rinishi ham mumkin. Shunday qilib yana bitta xatosini topamiz. Endi gorizontal joylashgan qalamni naturadagi kubning asosiga keltiramiz va qanchalik silindr asosini pastida bu chiziq o'tishini kuzatamiz. Naturada ikkalasini asosi deyarli bitta gorizontal chiziqda joylashgan. Buni qalamtasvida tekshirib ko'ramiz.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda "muallaq" bo'lishi yoki biri ikkinchisiga "o'yib" kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini kattakichikligini har doim bir-biriga taqqoslاب borish zarur.

Moybo'yoqli rangtasvir uchun matoda ko'mir yordamida yorug' va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarning hajmdor shakli yorug' soyalar bilan qurilsa qalamtasvir aniq ko'rindi. Tayyor bo'lgan tasvirni tashqi ko'rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko'mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo'yash uchun zarur bo'lgan natyurmortning aniq ko'rinishi qoladi.

Rang bilan ishslash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha, albatta, metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Endi o'quv natyurmortini amaliy bajarishga o'tamiz. Dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir), keyin rangli (akovarel va moyli bo'yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

Tus rangtasvirning ajralmas qismi hisoblanib, u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Rangtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat bergenlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: "Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra ranglarda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak...". Demak, rangtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari ranglar vositasida hal qilishga o'tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va h.k.) soya-yorug'lik gradatsiyasi va ularning ranglardagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zikh va to'qroq, boshqalari esa ochroq ko'rindi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zikhroq "og'ir" (masalan,

chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq "nozik" (gipsli vaza, qog'oz rulon va h.k.) ko'rindi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutanosiblikda ifodalash kerak. Bu chog'da narsalar orqasidagi fanni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Mevalardagi yorug'lik eng yorug' joyiga qaraganda to'qroq bo'lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur. Eng to'q narsalar yoki uning soyasi — bu qora baxmalda va ko'mir rangida emasligini esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq, lekin juda ham to'q qora tusda ishslash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo'yoqni bor kuchidan foydalanish noto'g'ri, aks holda qog'ozda yoki matoda qora teshik paydo bo'ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo'yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo'q, chunki, u oq bo'yoqqa nisbatan ancha to'qroq bo'ladi.

Ishning birinchi bosqichida — asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obyektlarning yorug'-soya munosabatlari<sup>1</sup>. fonning och-to'qligi, narsalarning sirtidagi och-to'qligiga va ularning o'zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo qo'yilmadagi narsalarning umumiyligi tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiyligi munosabatlarni noto'g'ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug'-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko'rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha

bo'yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan quyuq bo'yoqda ancha to'qroq qatlamli va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmalarini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chegaralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinish turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shib, uning yuqori qirrasi fonda yaqqol ajralib turadi.

Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug' bilan ham puxta ishslash kerak. Gipsli narsalarning sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasini har bir millimetri asta-sekin to'qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shahsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (prizma, kub va h.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining hususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o'zining ma'lum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi — hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir. Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham, kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obyektlar siluetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rinadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning soya-yorug' qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq ko'rinadi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo'laklarni, ularning yorug' soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, har birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhini yaxlitligini saqlash haqqoniy tasvirlashning asosiy shartidir.

## **2.3. Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortning amaliy-ijodiy tahlili va uslubiy tavsiyalari**

Ma'lumki, ta'lim – tarbiya sohasida pedagogik texnologiya ancha murakkab masala bo'lib, undan tasviriy san'atini o'qitishda foydalanish ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Maktab tasviriy san'atini o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi bilan hozirgacha biron bir tuzukroq ilmiy asar yoki metodik – didaktik qo'llanma chop etilgani yo'q. Buning uchun bu masalada mulohaza yuritish uchun, masalani sal yuqoriroqdan boshlab, texnologiya, pedagogik texnologiya va so'ngra tasviriy san'atni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish orqali badiiy tahlil qilinsa yaxshiroq bo'lardi – nazarimizda.

Bu darsning dars texnologiyasi bir mazmunda bo'lsada, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi albatta bir – biridan farqlanadi.

Ya'ni "narsani o'ziga qarab rasm chizish" mashg'ulotlarida naturadan, ya'ni buyumni o'zini ko'rib, undan shaklni imkoniyati boricha naturadan tasvirlanadi.

Shuning uchun maktab tasviriy san'ati darslardagi pedagogik texnologiyalarini ta'rifini keltirish va ularni: "Dars texnologiyasi" turlariga ajratishda ham alohida e'tibor zarur bo'ladi.

Xo'sh, tasviriy san'at darslarida "Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash metodikasi"ni o'rganib chiqish va o'qitishdagi pedagogik texnologiyani umumiyl holda qanday tushunamiz?

Bunga javob, - "Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash" metodikasining negizini – bu tasviriy san'at o'qitiuvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish va bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon – deb aytamiz.

Ya'ni o'qituvchini 45 minut dars jarayonida belgilangan, mo'ljallangan maqsadga erishish uchun ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanishning didaktik,

metodik va uslubiy jarayonlari majmuasi asosida kafolatlangan natijalarga erishishni ta'minlaydigan pedagogik qo'llanmasi, - desak to'g'iroq bo'lsa kerak.

Maktab tasviri san'atini o'qitishda ham pedagogik texnologiyani "dars texnologiyasi", "o'qitish texnologiyasi" va "ta'lim texnologiyasi" kabi ko'rinishlaridan foydalanishadi.

1. "Dars texnologiyasi" – bu 45 minutli tasviri san'at darsini qo'riliishi, tuzilish va tashkil etilishining umumiy pedagogik talablarga (didaktik va metodik) javob berishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir. Ya'ni tasviri san'at o'quv fanining sinf – dars sistemasi bo'lib, u yangi bilim berish, berilgan bilim – malakalarni mustahkamlash, aralash dars, bilim – malakalarni tekshirish va nazorat qilish darslari kabilar. Ularning har biri o'ziga xos texnologiyalarda faoliyat yuritadi.

2. "O'qitish texnologiyasi" – tasviri san'at va san'atshunoslik fanlarini o'qitish va ular asosida nazariy va amaliy sohalaridan bilim – malakalarni o'zlashtirish yo'li, qoidalari va uslublari majmuasi jarayonidir.

Bu texnologiya ma'lum bir o'quv predmetini o'qitish va o'zlashtirish yo'lini didaktikasi va xususiy metodikasi jarayonni ifoda etadi. Shunga ko'ra o'qitish texnologiyasi tasviri san'at dars mashg'ulotlarining besh turi bo'yicha o'zagarib ham turadi. Chunki tasviri san'at dars mashg'ulotlarini o'qitish didaktikasi va uslublari mashg'ulotlaridagi maqsad va vazifalarni o'zagarib turishi bilan uning o'qitish texnologiyasi ham o'zgarib turadi.

3. "Ma'lumot texnologiyasi" – bu o'quvchilarga ma'lumot berish mazmunida ifodalanib, u o'quvchilarga tasviri san'at o'quv fanidapn bilim – malaka berish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ilmiy muloqot, munosabat, ijodiy hamkorlik jarayonlari mazmunida ifodalanadi.

Ya'ni – o'quvchilarga beriladigan san'at nazariyasi va rasm chizish (tasvirlash)ga oid bilim – malakalarni o'quvchilarga etkaza olishni kafolatlay oladigan ta'lim-tarbiya vositalari, o'qitish didaktikasi, metodikasi va uslublari majmuasida ifodalanadi.

Chunki, dars jarayonida tasviriylar san'at o'qituvchisi o'quvchilarga bo'ladigan dars mazmuni bo'yicha va darsda bajariladigan amaliy ishlar bo'yicha vazifalar va ularni bajarish yo'llarini eng oson, eng qisqa va ilmiy-ijodiy asosdagi yo'llari bo'yicha ma'lumotlar beradi.

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, maktab tasviriylar san'atini o'qitilishida pedagogik texnologiyani har uchala ko'rinishidan foydalansa bo'ladi. Bu tasviriylar san'at o'qituvchilari uchun uslubiy ko'rsatma sifatida ularning pedagogik faoliyatida samarali xizmat ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyani yaxshi tushunib olgan tasviriylar san'at o'qituvchisi har qanday holatda ham dars samaradorligini oshirishga erishadi.

Chunki, pedagogik texnologiyani juda ko'plab prinsiplari borki, ulardan dars maqsad va vazifasiga ko'ra foydalanishi mumkin.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyaning muammoli – modulli o'qitishi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ta'limni jadallashtirish, maqsadli o'qitish, tabaqlashtirib o'qitish kabi turlari ishlab chiqilganki, o'qituvchini o'zi tasviriylar san'atni o'qitish mazmuniga mos kelishiga ko'ra tanlaydi va undan foydalanadi.

Masalan: Muammoli – modulli o'qitish texnologiyasidan tasviriylar san'atni o'qitishda foydalanib, o'tiladigan dars materialini to'liq, qisqartirilgan yoki chuqurlashtirilgan mazmunda amalga oshiradi va ta'lim jarayonini integratsiyalash va tabaqlashtirib o'qitish texnologiyasidan foydalanadi.

Maktab tasviriylar san'at o'qituvchisi "Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash" darsida pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishi uchun o'quv – tarbiya vositalarini kuchaytirish zarurki, bu maktab tasviriylar san'ati darslari didaktikasi va metodikasi talablariga javob beradigan tasviriylar san'at kabinetini tashkil etishi va unda zaruriy didaktik va ko'rgazma materiallar bazasini va natura fondini bunyod etish zarurligini ifoda etadi.

Bu esa o'zining didaktik va metodik jihatlarida ham albatta ijobjiy o'zgarishlar yasaydigan shart – sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi.

Chunki, har qanday ta’lim berishni tashkil etish va berilgan bilim – malaka (ta’lim)larini oldindan belgilangan me’yorda bo‘lishini ta’minlash, asosan ta’lim berish vositalari, didaktik va ko‘rgazma quollar, o‘qituvchi nutqi va uni o‘qitish didaktikasi va metodika – uslublaridan qay tarzda mukammal, to‘g‘ri, asosli, foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Chunki, dars – fanni o‘qitish didaktikasi va uning prinsiplariga javob bera olmaydigan bo‘lsa, u hech qachon samarali bo‘lmaydi.

Tasviriy san’atni o‘qitishda “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlashning pedagogik texnologiyasi – o‘quvchilarga natyurmort pastonovkasi bo‘yicha bilim – malakalar berish, ular asosida shaxsni rivojlantirish qonun – qoidalarini o‘zida mujassam etgan holda oldindan rejalashtirilgan natijani kafolatlaydigan, pedagogik faoliyatdir, - desak uni didaktik jarayoni va metodik yo‘nalishi qay tarzda talqin etiladi?

Pedagogik texnologiya – murakkab jarayon sifatida qator o‘qitish bosqichlaridan va o‘z navbatda bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos amallardan iborat bo‘ladi.

Agar biz tasviriy san’at darsida “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” o‘quv mashg‘ulotini, ya’ni 45 minutli vaqt ichida barcha imkoniyat, shart – sharoit, vosita, didaktika, metodik uslublardan (qanday darajaligidan qat’iy nazar) foydalana olsak, kafolatlangan natija uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning barchasi (N.Talzina ta’rifiga ko‘ra) ushbu darslarining pedagogik texnologiyasi bo‘ladi.

Maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasida asosiy narsa – bu kafolatlangan natija bo‘yicha imkoniyat, shart – sharoit, vositalar, metodika va uslublar bo‘lib, ularni tashkil etish – tasviriy san’atni o‘qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi.

Chunki, maktab tasviriy san’atini o‘qitish didaktikasi har bir dars – mashg‘uloti uchun eng avvalo berilayotgan bilim – malakalarni ilmiy asosda bo‘lishi ta’minlanadi. Ilmiylik prinsipi – o‘quvchilarga rasmi chiziladigan natura,

ob'ekt, mavzu, voqea – hodisalarni yoki tahlil qilanadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotni ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi.

So'ngra beriladigan bilim-malakalar sistemali, ketma-ketlik asosda bo'lishi ta'minladi-ki, bu pedagogikani yoki didaktikani osondan – qiyinga borish prinsipi asosida olib boriladi.

Bu jarayon avval osonroq tasvirlanadigan, oddiy predmetlar rasmini chizib, keyingi mashg'ulotlar asta murakkablashtirib borish asosida quriladi.

Bular mакtab tasviriy san'ati dasturida berilgan mavzularning ketma – ketlik mazmunida o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Shuningdek, mакtab tasviriy san'ati bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim – malakalar didaktikani tarbiyaviylik prinsipiga amal qilingan holda olib boriladi.

Chunki mакtab tasviriy san'ati o'quv predmeti o'quvchilarni badiiy – ahloqiy, estetik, mehnatga, o'z halqiga, Vataniga, ota – bobolar ijodiga katta xurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Yana mакtab tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko'ra har bir dars – o'quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o'zida amaliyotida qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma'lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart – sharoitiga ko'ra uning dars texnologiyasida ijodiy o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Yana tasviriy san'atini o'qitishda g'oyat ahamiyatga molik bo'lган didaktik prinsip – o'quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o'qitishga shart – sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Bu prinsip o'quvchilarning barchani rasm ishlashga va tasvirlar yaratishga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Maktab tasviriy san'at darslarida “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” mavzusi bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo'lishiga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarga beriladigan tasviriy san'at o'quv mashg'ulotlarida “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” mavzusi bo'yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunnarli, ilmiy asosda bo'lishini ta'minlashda didaktikani ko'rgazmali o'qitish - ta'lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik prinsip sanaladi.

Maktab tasviriy san'atining Davlat dasturi bo'yicha o'quv materiallarining hammasi ko'rgazmali o'qitishni talab qiladi.

Chunki, - “Maktabda ko'rgazmasiz o'qitib bo'lmaydigan yagona o'quv fani bu tasviriy san'atdir” – deb doimo ta'kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san'atini o'qitish – texnologiyasida ko'rgazmalilik – oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik prinsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi.

Maktab tasviriy san'atini o'qitish texnologiyasidagi didaktik jarayon V.P.Bespalko ko'rsatib o'tganidek, - Yangi dars materialiga kirish – ya'ni, - o'quvchilarni yangi dars materialini qabul qilishga tayyorlash -motivatsiya jarayoni bilan boshlandi. Bu o'quvchilarni yangi dars materialiga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni dars davomidagi faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligi va ijodkorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” mavzusidagi o'quv mashg'ulotini o'qitish texnologiyasida asosiy o'rinni uni o'qitish didaktikasi va metodikasi oladi. Chunki metodika va didaktika maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim – malaka berishning eng asosiy va oxirgi pedagogik jarayoni sanaladi. Metodika – maktab tasviriy san'atidan o'quvchilarga bilim – malakalar berishning eng oson, eng samarali pedagogik ta'sir ko'rsatuvchi vosita bo'lib, darsdagi oldidan belgilangan natijalarni kafolatlay oladigan jarayon xisoblanadi.

Bu o‘rinda shuni aytish joyiz – ki, maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasida qo‘llaniladigan hozirgi zamon o‘qitish metodlaridan bo‘lmish:

- Og‘zaki bayon etish metodi;
- Ko‘rgazmali o‘qitish metodi;
- Amaliy ishlar metodi bo‘lib, bu metodlarning har biri qator usulblarga ham bo‘linadi;

Maktab tasviriy san’atini o‘qitishda eng ko‘p ishlatiladigan metod “Og‘zaki bayon etish” metodi bo‘lsada “Ko‘rgazmali o‘qitish” va “Amaliy ishlar” metodidan ham har bir dars jarayonida foydalaniadi.

Chunki, maktab tasviriy san’ati o‘quv faning o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ko‘rgazmasiz o‘qitish mumkin bo‘lmagan o‘quv fani hisoblanadi.

Yana “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash” mavzusini pedagogik texnologiyasiga ko‘ra, 45 minutli darsni yarmidan ko‘pi amaliy ishlar bilan ta’milnadi.

- Maktab tasviriy san’ati darslarida: “Og‘zaki bayon etish” metodini suhbat, hikoya, savol – javob, ma’ruza kabi uslublaridan;
- “Ko‘rgazmali o‘qitish” metodini namoyish, illyustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskada o‘qituvchi rasmi va eksursiya, kabi uslublardan;
- “Amaliy ishlar” metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy – amaliy san’at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san’at asarlari tahlili, san’at asarlari yuzasida insho, referat yozish, kabi uslublardan foydalaniadi.

Xulosa, maktab tasviriy san’atini o‘qitish texnologiyasi o‘zini oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o‘qitish didaktikasi va metodikasidan a’lo darajada foydalana olishi o‘qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Buning uchun maktab tasviriy san’at o‘qituvchisi eng avval pedagogik texnologiya, uni maktab tasviriy san’atini o‘qitishdagi roli, o‘rnii mazmun – mohiyatini, so‘ngra maktab tasviriy san’atini o‘qitish didaktikasi, uning

prinsiplerini va o‘qitish metodlarini yaxshi bilib olishi, yana ulardan qachon, qaysi o‘rinda, qanday mazmunda foydalanishni o‘zlashtirib olish zarur.

Umumta’lim maktablari «Tasviriy san’at» o‘quv fanidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida belgilangan o‘quv materiallarini 5-sinf o‘quvchilari qay darajada o‘zlashtirganliklarini bilimlar sinovini o‘tkazish orqali aniqlanadi. Bilimlar sinovini o‘quvchilar amaliy ish orqali ham bajaradilar. Amaliy ish (variant)lar o‘tilgan mavzular asosida tuzilgan bo‘lib, har bir sinfga 3 ta variantdan iborat.

Amaliy ish (variant)lardan bittasi o‘quvchilar tomonidan tanlab olinadi. Tanlangan variantni o‘qituvchi har bir o‘quvchiga ko‘rinadigan qilib, maxsus moslamaga yoki stolga (m-n: «Natyurmot» postanovkasini) joylashtiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli metodik yo‘nalish berishi yoki ma’lum bir tasvir lavhalarini tarqatib so‘ngra bayon etib berishi lozim.

O‘qituvchi topshiriqni boshlashdan avval amaliy ishni oldin qalamda naturaga qarab bosqichma-bosqich tasvirlashi, so‘ngra akvarel bo‘yoqlar yordamida rang berib, amaliy ishni oxirigacha sifatli, aniq bajarishlari xaqida eslatib o‘tadi.

Masalan: “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmortni tasvirlash”ni bajarish uchun (postanovkada), rangli matolar (drapirova), meva mulyajlaridan tuzilgan bo‘lib, o‘quvchilar bu pastanovkani akvarel (suv bo‘yoq) va turli o‘lchamdagagi yumshoq mo‘yqalamlardan foydalanib tasvirni bajarishlari haqida aytib o‘tadi.

Naturaga tushayotgan yorug‘likni to‘g‘ri ta’minalash uchun o‘qituvchi «Safet» (suniy yorug‘lik moslamasi) yordamida yoritib qo‘yishi zarur. Topshiriqni to‘g‘ri tuzilganligi, qog‘oz sathida to‘g‘ri joylashtirilganligi, ya’ni komponovkasi bosqichlari, buyum hajmining to‘g‘ri bajarganligi, tasvirni shakllantirganligi, ranglarning qo‘yilgan postanovkaga nisbatan mutanosibligi, soya, yarim soya, blik(yorug‘)ni ko‘rsata olganligi amaliy ishda o‘z aksini topgan bo‘lishi kerak.

### **1-boshlang‘ich darajasida:**

“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort”ni tasvirlashda o‘qituvchi asosan

o‘quvchidan yuqori darajada o‘zlashtirilgan asar chizish ko‘nikma malakasiga erishish natijasini olishi kerak. O‘zlashtirishning 1-bosqichi ya’ni, boshlang‘ich darajasida postonovkada qo‘yilgan predmetlar, ularning shakli, rangi, hajmi va boshqa o‘ziga xos jihatlardagi xilma-xillik bilan tanishadilar. Bu tanishuv ulardagi ko‘z xotirasini kuchaytiradi, buyumlar haqidagi aniq va to‘la tasavvurlari paydo bo‘lishiga yordamlashadi. Tasvir jarayoni o‘quvchiga ilgari qisqagina nazar solib o‘tgan buyumlarni endi chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

O‘quvchi rasm chizayotgan vaqtida buyumning formasi, ularning shakliy qurilishi, proporsiyasi, bo‘shliqdagi holati, rangi, uning och-to‘qligi, materialining qandayligi e’tibor bilan o‘rganadi, shu bilan ularni yanada samaraliroq, ko‘p tomonlama, teran va aniq xis etishga ko‘nikib boradi.

### **2-algoritmik darajasida:**

Tasviriylar san’at darsida o‘qituvchi “Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort”ni tasvirlashda o‘quvchilarga hajmli narsalar ya’ni guldon yoki guldon atrofidagi uy ro‘zg‘or buyumlari ya’ni, choynak, piyola, kastrul idish, childirma va samovar qisqasi 3 o‘lchovga ega bo‘lishi (eni, bo‘yi va kengligi) geometrik shakllar va narsalarning chizilishdan iboratdir bilimni berishi bilan o‘zlashtirishning algoritmik darajasiga ega bo‘ladi.

### **3- ijodiy darajasida:**

Natijaning ushbu darajasiga erishishi uchun o‘qituvchi pastonovkaga qo‘yilgan buyumlarini tasvirini estetik tomoniga ko‘proq ahamiyat bergen holda nazariy-amaliy bilim beradi. Narsaning o‘ziga qarab chizish darsi jarayonida har bir o‘quvchi temaga oid tasviriylar san’at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviriylar san’at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviriylar vositalardan foydalanganligi, uning kompozitsiyasi, asardagi ranglarning moslashuvi haqidagi chizilayotgan narsalarga taqqoslab ko‘rsatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilar faqat narsaning o‘ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san’at asarlari namoyandalari (namunalari) bilan ham tanishib boradilar. Masalan: biror bir Bahor gullaridan tashkil topgan natyurmortni

o‘quvchilar chizayotgan bo‘lsalar shunga mos yoki shu mavzuda bor narsalardan chizilgan O‘zbekistonlik rassomlarning asarlaridan rangli reproduksiyani o‘quvchilarga ko‘rsatish samaralidir. Masalan: M.Nabiev, Z.M.Kovalevskiy, N.K.Kashina, Z.Inog‘omov, A.Abdullaev rassomlarning asarlari reproduksiyalar shunga qo‘l kelishi mumkin. Shunda postonovkada qo‘yilgan predmetlarni tasviriy san’at talablariga to‘la javob beradigan darajada tasvirlay oladilar.

#### **4- evristik darajasida:**

Ushbu darajaga erishish hayoldan va narsaning o‘ziga qarab rasm ishlashda o‘quvchilardan bevosita kuzatishni, predmetlar, ekran vositalari (kinofilmlar, slaydalar), kitobga ishlangan illyustratsiyalar, hujjatlari materiallari talab etadi va bular badiiy obrazni yartishda o‘quvchilarga katta yordam beradi.

Shuningdek, o‘zlashtirishning evristik darajasiga etgan o‘quvchilar kelgusida o‘zi ham huddi shunga o‘xhash va yangidan-yangi g‘oyalar yo‘g‘rilgan natyurmort janridagi tasviriy san’at asarlarini yaratish uchun mustaqil ijod qiladilar. O‘quvchilarni evristik darajasida ijod qila olishda o‘qituvchining samarali mehnati cheksiz bo‘ladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi mavzuni qanchalik keng va to‘liq tushuntirsa bolalar rasmlari shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi. Har bir mavzuni chizishdan oldin o‘quvchilar bilan ma’sul vaqtga ekskursiyalar o‘tkazish mavzu asosida ishlagan asarlarni tahlil qilish hol maqsadga muvofiqdir.

Rasm chizish jarayonida chizish qiyin bo‘lgan predmetlar, murakkab texnika va xokazoni chizish yo‘llari haqida ma’lumot berish, sxematik tasviri o‘qituvchi tomonidan chizib ko‘rsatilsa dars jarayoni yanada tushunrli, oson va muhimi qiziqarli bo‘ladi.

“Bahor gullaridan tuzilgan natyurmort”ni tasvirlashning xarakterli tomoni shundaki bu hayotdan, go‘zallikdan zavqlanishga yo`naltirilganligidir. Bu vazifani rassom gullarning turli ko‘rinish va ranglarini ifodalab kishilarni xis-xayajonini uyg‘otish orqali bajargan.

Natyurmort o‘zbek millatining turmush tarzi haqida ma’lumotlar berishi ham mumkin.

Ushbu natyurmortning kishilarga ikki xil ta’siri qayd qilinadi. Birinchidan, natyurmort mustaqil bo‘lib tomoshobinga o‘zini ko‘z-ko‘z qilib, undan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u uy-ro‘zg‘or buyumlarini, samovar, choynak-piyola, childirma, kastrul idishdan tashkil topgan bo‘lsa, ro‘zg‘orning fayzubarakasi sifatida foydalanishga, o‘zbek millatining qadriyatva milliy an’analarini eslatishga chaqiradi.

Ikkinchidan natyurmort o‘zi haqida emas, u bilan bog‘liq shaxs uning egasi haqida ma’lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasada, biroq u natyurmortdan uzoqda emas, xozir u uy-ro‘zg‘or buyumlarini tasvirlash orqali o‘zining milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, oilasini, ro‘zg‘orini qadrlashi mumkinligidan darak beradi.

Natyurmortlarni bu ikki xili qo‘shilgan holda ifodalangan ham bo‘lishi mumkin.

Bu janrlar rassomlardan J.SHarden, F.Snayders, I.Mashkov, P.Konchalovskiy, L.Salimjonovalar shuxrat qozonganlar.

## Xulosa

Mana yuqorida ko'rib o'tilganidek tasviriy san`at mashg'ulotlari o`quvchilarni obrazli fikrlashga va ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishga, hayotdagi go'zallik va yangiliklarni ko'ra bilish malakalarini shakllantirish, voqeа va hodisalarni umumlashtirish va ichki hissiyotni badiiy obrazlarda tasvirlashga imkon beradi.

O`quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishdan asosiy maqsad milliy ma'naviyat va ahloqiy an'analar asosida kelib chiquvchi insonparvarlik va realizm metodlari, yuksak mahorat va chuqur tasviriy madaniyatni egallagan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarni hal qilishda Tasviriy san`at mashg'ulotlarining o'rni va roli beqiyosdir.

Ushbu malaka ishimda o`rta ta`lim maktablarining tasviriy san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarga natyurmort kompozitsiyasi ustida ishlashni o'rgatish uslublari haqida bir oz bo'lsada to'xtalib o'tdim.

-Pedagogik texnologiyaning mohiyati va nazariyasi haqidagi fikrlar o'rganildi.

-O`quvchilarda o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyani joriy etishning zarurligi to'g'risidagi fikrlar shakllantirildi.

-O`quvchilarga natyurmort kompozitsiyasini ishlashni o'rgatishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanildi.

-Natyurmort kompozitsiyasini ishlashda pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda uni amalda qo'llashga erishildi.

-O`quvchilarga natyurmort kompozitsiyasini o'rgatishda klaster metodidan foydalanish ko'nikmalari hosil qilindi.

-O`quvchilarda natyurmort ishslash mavzusidagi dars ishlanmasi orqali ularning ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI**

1. Ўзбекистон Республикаси ”Кадрлар тайёрлаш миллий дастури“ Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ НМАК, 1997. 31-61 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. 64-бет.
3. Karimov.I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Т .: O‘zbekiston, 2005. -176 b.
4. Ўзбекистон Республикаси ”Таълим тўғрисида“ ги Қонуни / Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.–Т .: Шарқ НМАК, 1997. 20-29-б.
5. Азимова Б. Натюрморт тузиш ва тасвирлаш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи,1984.
6. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Т.: TDPU, 2003. - 174 b.
7. Abdurahmonov G.M. Kompozitsiya asoslari.- Toshkent, 2007.22-25-b.
8. Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent, 2005. 8-10-b
9. Husanov R. Maktabda tasviriy san’at o’qitish metodikasi. Т, «Fan», 2004 y.
10. Бестчастнов Н.П идр. "Живопись" М-"Владос"-2001.
11. Ростовцев Н.Н."Методика преподавания изобразительного искусства в школе" М-2000
12. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari / Qo‘ll. – Т.: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
13. Egamov N. Rangtasvir. Toshkent.,2005
14. Кощель П. Энциклопедический словарь художника. М – 2000 г.
15. Сенько Д. С. Основы композиции и цветоведения. Изд.:Беларусь. 2010г.

16. Сластенин В.А. Инновационная деятельность. – М.: Пед.общество России, 1997. – 227 с
17. Tolipov .N, Abdirasilov. S, Oripova .N Rangtavir. T., 2006
18. Умаров А. Аҳмедов М. Тасвирий санъат атамаларининг изоҳи лугати. - Тошкент: ЎзТСМУ, 1998.
19. Ойдинов Н. Рассом-ўқитувчилар тайёрлаш муаммолари. - Тошкент; Ўқитувчи,1997.

## ILOVALAR









